

Ilm-fan va ayollar

Ayolni e'zozlash, ularga farzandlarimiz tarbiyachisi, oilalarimiz tayanchi sifatida hurmat-ehtirom ko'rsatish, ularning huquq va erkinliklarini himoya qilish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Jamiyatimizda ayollarning o'rni va mavqeい ham yildan yilga oshib bormoqda.



Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tizimida jami 4761 nafar xodimlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lsa, shulardan 1905 nafari ayollarni tashkil qiladi. Jami 2146 nafar ilmiy xodimdan 695 nafari ayollar bo'lib, jumladan, 7 nafar akademik, 90 nafar fan doktori, 250 nafar fan nomzodlaridir. Ko'rinish turibdiki, xotin-qizlarimiz mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotining barcha jabhasida munosib faoliyat yuritmoqda. Ular nafaqat, kelajak avlodni kamol toptirishda, balki ilm-fan, ta'lim, sog'liqni saqlash sohasida, sanoat va qishloq xo'jaligini rivojlantirishda o'z hissalarini qo'shib kelmoqdalar.

OBIDOVA MUHABBAT
FOZILOVNAUBAYDULLAYEVA RA'NO
AXATOVNAMAVLANI MASHHURA
EGAMOVNARASHIDOVA SAYYORA
SHARAFOVNAYUSUPOVA DIJOROM
YUNUSOVNAINOYATOVA FLORA
ILYASOVNAARIPOVA TAMARA
O'KTAMOVNA

Shuningdek, FA tizimidagi eng yirik ilmiy-tadqiqot muassasalaridan hisoblangan Polimerlar kimyosi va fizikasi instituti, Immunologiya va inson genomikasi instituti, O'zbekiston tarixi davlat muzeyi hamda FA Fundamental kutubxonasi rahbarlari ayollar ekanligi quvonarli. Bu esa jamiyatimizda ayollarning mavqeい ortayotganidan va mamlakatimiz rivojida ularning о'rni alohida ekanligidan dalolat beradi. Mehnatsevar, aqlii, jonkuyar ayollarimizga kuch-quvvat, sihat-salomatlik, oilaviy baxt, tinchlik-xotirjamlik tilaymiz va Vatanimiz ravnaqi yo'lida xormay-tolmay mehnat qilishlariga tilakdoshmiz!